



SHO'RADOHLAR (CHENOPODIACEAE) OILASINING SISTEMATIKASI, UMUMIY TASNIFI VA AHAMIYATI

Olimova Muxlisa Odiljon qizi

E-mail: odiljonolimov7802@gmail.com

Andijon Davlat Pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish
metodikasi fakulteti biologiya ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

ARTICLE INFO

Received: 01st January 2023

Accepted: 11th January 2023

Online: 12th January 2023

KEY WORDS

*Progressiv, tropik, monofilitik,
polifilitik, anabazin, saponin,
efir moyli, Qizil Kitob.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada Sho'radoshlar oilasining sistematikasi, umumiy tasnifi va ayrim vakillarining tabiatdagi va inson hayotidagi ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Yer yuzida tabiati xilma-xil va rang-barangdir. Bunda o'simliklar alohida o'rin egallaydi. Gulli o'simliklar (*Magnoliophita*) bo'limi, o'simliklar dunyosida eng yosh, yer yuzining barcha mintaqalarida tarqalgan progressiv turlar hisoblanadi. Ularning dastlabki dastlabki vakillarining paydo bo'lishi mezazoy erasiga to'g'ri keladi. Gulli o'simliklar turlari cho'llar, tropik mintaqalardan tortib toshli, qumli saxrolar va baland tog'largacha yoyilgan. O'simliklarning inson hayotidagi o'rni ham beqiyosdir. Biz ulardan o'z ehtiyojlarimiz uchun oziq-ovqat mahsulotlari, qurilish materiallari, dori-darmon va boshqa turli xildagi mahsulotlar olishda foydalanamiz.

Gulli o'simliklar o'z tarkibiga 533 oila 13000 turkum va 250000 dan ortiq turlarni birlashtiradi. Gulli o'simliklar boshqa o'simliklarga nisbatan tashqi muhit sharoitlariga yaxshi moslashgan. Ularning urug'lari mevachi burglar ichida yopiq holda yetiladi shuning uchun ularni yopiq urug'li o'simliklar ham deyiladi.

Gulli o'simliklar kelib chiqishida olimlar tuli xil fikrlar yuritgan. Hozirgi kunda ularning kelib chiqishi to'g'risida ikki xil fikr mavjud:

Monofilitik yo'l bilan gulli o'simliklar bitta yagona ajdoddan kelib chiqqan deyiladi (A.L.Taxtadjyan)

Polifilitik yo'l bilan esa gulli o'simliklar bir nechta qadimiy ajdodlardan kelib chiqqan.

Sho'radoshlar (*Chenopodiaceae*) oilasi morfologik belgilariga nisbatan Ko'knordoshlar oilasiga yaqin hisoblanadi. Bu oila Chinnigulnamolar (*Caryophyllales*) qabilasiga mansub bo'lib, 110ga yaqin turkum va 1600 turni o'z tarkibiga birlashtiradi. Oila vakillarini o't, buta va yarim butalar, past bo'yli daraxtlar tashkil qiladi. Ular yer yuzida keng tarqalgan.

Markaziy Osiyoda 51 turkumga mansub 320 turi o'sadi. Ulardan 43 turkumga oid 176 turi O'zbekiston hududida tarqalgan. Oila vakillarining barglari oddiy, dag'al, tuxumsimon, ellipssimon, chetlari tishsimon poyada ketma-ket va qarama-qarshi o'rnashgan bo'ladi. Asosan cho'l zonasida o'sganligi tufayli gullari ko'rimsiz va mayda, gulqo'rg'oni oddiy tuzilgan. Gulqo'rg'oni va changchilari 5 tadan, urug'chisi 2-5 ta meva barglarning qo'shilishida hosil



bo'lgan. Gullari ikki jinsli ayrim vakillari olabutalarda ayrim jinsli. Mevasi qanotchali 10-30mm Tanasi tuksiz ba'zida tuklar bilan qoplangan vakillari ham uchrab turadi.

OILA VAKILLARI:

Qir buyurg'un (Anabasis eriopoda) past bo'yli daraxt. Bo'yi 5 metrgacha yetadi. Mart-oktabr oylarida gullab urug' beradi. Cho'llarda o'sadi.

Oq saksavul (Haloxylon persicum). Poyasining bandligi 9 m. gullagandan keyin ham o'sishni davom ettiradi. Aprel-sentyabr oylarida gullab meva beradi. Cho'llarda, sho'rlangan tuproqlarda o'sadi.

Keyrauk sho'rak (Salsola orientalis). Balandligi 100 sm. Gulqo'rg'oni tuksiz. Iyun-sentyabr oylarida gullab meva beradi. Cho'l va adirlarda ekinlar orasida uchraydi.

Ishqorli shoxilak (Kalidium caspicum). Hayotiy shakliga ko'ra buta. Barglari poyada ketma-ket o'rnashgan. Balandligi 1.3-3 metr. Iyun-sentyabr oylarida gullab meva beradi.

Oq sho'ra (Chenopodium album). Nihoyatda keng tarqalgan bir yillik begona o't. Bo'yi 10-100 sm. Poyasi 5 qirrali. Urug'i qattiq, qora, sopermodermli. Barglari rangli. Bog'lar, ekinzorlar va yo'l bo'ylarida o'sadi.

Turkiston ismalog'i (Spinacia turkestanica) bir yillik ikki uyli begona o't. Bo'yi 10-60 sm.

Tatar olabutasi, eshaksho'ra (Atriplex tatarica) bir yillik o't. Bo'yi 10-100 sm. Tanasi biroz ko'kish ragli. Ariq va kanallar bo'ylari, ekinlar atrofida o'sadi.

Itsigak (Anabasis aphylla) chala buta. Zaharli, tarkibida anabazin va alkaloidlar mavjud. Anabazindan qishloq xo'jaligida zararkunandalarni yo'q qilishda foydalaniladi.

Xushbo'y sho'ra (Chenopodium batrys) daryo bo'ylari va soylardagi toshli joylarda o'sadigan bir yillik o'simlik. Tarkibida efir moylari mavjud.

Oq saksavul (Haloxylon persicum) qora saksavul (H.aphyllum) cho'llarda keng tarqalgan. Oq saksavulasosam qumlarda qora saksavul esa sho'rxak tuproqlarda o'sishga moslashgan. Bu o'simliklar qumlarni ko'chishdan saqlaydi va chorva mollar uchun to'yimli ozuqa hisoblanadi.

Oddiy lavlagi (Beta vulgaris) iki yillik o'simlik. Birinchi yili to'pbarg hosil qilib, ildizida ozuqa modda to'plab ildizmeva hosil qiladi. Ikkinchi yili esa uzun yog'on poya va to'pgul hosil qiladi. Oddiy lavlagi turkumi bir nechta turlarga bo'linadi. *Qand lavlagi (vilgaris var.saccharifera)*, *Sabzavot lavlagi (vuldaris var.esculenta)*, *Barg lavlagi (vulgaria var.cicla)*.

Sho'radoshlar oilasidan 6 ta turkum va bu turkumga mansub 13 ta tur o'simlik O'zbekiston Respublikasi "Qizil Kitobi" ga kiritilgan. Bu turkumlar Baliqko'z (Climocoptera), Buzoqbosh (Halimocnemis), Toshbiyurg'uni (Nanophyton), Sho'rak (Salsola), Anto'xlama (Anthochlamys), Donasho'r (Gamanthus).

1-jadval

SHO'RADOSHLAR OILASI TURLARINING O'ZBEKISTON HUDUDIDA VILOYATLAR BO'YICHA TARQALISHI

№	Turlar	O'zbekiston hududida tarqalgan joylar
1	Anabis eriopoda	Farg'ona Qashqadaryo Surxondaryo Buxoro viloyatlari
2	Haloxylon persicum regel	Toshkent Sirdaryo Farg'ona Qashqadaryo Surxondaryo Navoiy Buxoro Xorazm



3	Haloxylon aphyllum	Barcha viloyatlarda
4	Kalidium caspicum	Buxoro Qashqadaryo Surxondaryo Navoiy Xorazm
5	Halostenum strobilaceum	Toshkent Samarqand Jizzax Navoiy Buxoro Qashqadaryo Surxondaryo
6	Chenopodium album	Toshkent Sirdaryo Samarqand Jizzax Navoiy Buxoro
7	Gisgensohnia oppositiflora	Farg'ona Andijon Buxoro Qashqadaryo Surxondaryo Navoiy
8	Salicornia europea	Toshkent Sirdaryo Namangan Andijon Farg'ona Samarqand Jizzax Qashqadaryo Surxondaryo

Ushbu jadvaldan ko'ra sho'radoshlar oilasiga mansub turlar Respublikamiz viloyatlari bo'ylab turli xil tarqalgan. Bu oila vakillari asosan Namangan, Farg'ona, Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida ko'p uchraydi.

2-jadval

SHO'RADOSHLAR OILASI BA'ZI VAKILLARINING AHAMIYATI

	Turlar	Dorivor	Oziqbop	Efir moyli	Zaxarli
	Keyrauk sho'rak		+		
	Ishqorli shoxilak	+	+		
	Cherkez sho'rak		+		
	Qubbador sarsazan	+			
	Turkiston ismalog'i		+		
	Ko'k sho'ra		+		
	Uchqanot sag'an		+		
	Beshilmoq bassiya		+		
	Tatar olabo'tasi		+		
0	Cho'l olabutasi		+		
1	Xushbo'y sho'ra			+	
2	Itsigak				+
3	Oddiy lavlagi		+		

Sho'radoshlar oilasiga mansub o'simliklarning xalq xo'jaligidagi ahamiyati katta. Bu oila vakillari o'z tarkibida saponin, anabazin, efir moylari, yer ustki qismida organik kislota va fermentlar bo'ladi. Lavlagi o'smliги esa qand sasoatida alohida asosiy o'rinni egallaydi. Saksavuldan yoqilg'i va chorva mollar uchun yem-xashak sifatida foydalaniladi. Sassiқ sho'ra tarkibida bo'yoq moddalar uchraydi. Jadvaldan va to'plangan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki bu oila vakillari ko'plab sohalarda ishlatiladi.



References:

1. O'. Prator, X. M. Xudoyberganov "Botanika darsliklarida qo'llaniladigan yuksak o'simliklar sistematikasiga oid kategoriya va taksonlar" tosh 2004
2. O'. P. Prator, M. M. Nabiyev "o'zbekiston yuksak o'simliklarining zamonaviy tizimi" tosh 2007
3. O'. Prator, Q. Jumayev "Yuksak o'simliklar sistematikasi" tosh 2003
4. R. I. Toshmuhammedov "O'simliklar sistematikasidan amaliy mashg'u-lotlar" tosh 2006
5. S. Xoliqov, O'. Prator, A. Fayziyev "O'simliklar aniqlagichi" tosh 1995
6. O'zbekiston Respublikasi "Qizil Kitobi" tosh 2019